

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH JARAYONIDA REFLEKSIV KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

Soatova Rayxona Sadridin qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti
Pedagogika yo‘nalishi talabasi
rayhonasoatova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv ko‘nikmalarini shakllantirish orqali pedagogik mahoratini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy yo‘nalishlari tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari refleksiya pedagogik kompetensiyani shakllantirishda muhim omil ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Refleksiya, mahorat, pedagog, faoliyat, tajriba, o‘quv jarayoni.

Annotation: This article analyzes the theoretical foundations and practical directions of developing pedagogical skills in future teachers through the formation of reflective competencies. The results of the study demonstrate that reflection is a key factor in shaping pedagogical competence.

Keywords: Reflection, skill, pedagogue, activity, experience, educational process.

Аннотация: В статье анализируются теоретические основы и практические направления развития педагогического мастерства будущих учителей посредством формирования рефлексивных умений. Результаты исследования показывают, что рефлексия является важным фактором в формировании педагогической компетентности.

Ключевые слова: Рефлексия, мастерство, педагог, деятельность, опыт, учебный процесс.

Bugungi o‘zgaruvchan, raqamli texnologiyalar bilan boyitilgan ijtimoiy muhitda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchining shaxsini rivojlantiruvchi,

unga yo‘l ko‘rsatuvchi murabbiy sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847 sonli farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”¹ pedagogdan o‘z kasbini chuqur anglashni, doimiy izlanishni, o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyatiga ega bo‘lishini talab etadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, refleksiya – o‘qituvchining professionallik darajasini aniqlovchi indikatorlardan biri sifatida e‘tirof etiladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ta‘lim sifatini oshirish, innovatsion yondashuvlarni joriy qilish, pedagogik malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish alohida strategik yo‘nalish sifatida qayd etilgani bu mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.² Shu boisdan, bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish, ularni pedagogik amaliyotga tayyorlashda mazkur jihatni nazariy va amaliy nuqtai nazardan chuqur tadqiq etish ayni kunning eng dolzarb ilmiy-pedagogik vazifalaridan biridir.

Refleksiya (lot. “reflexio” – orqaga qaytish) – har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o‘z xatti - harakatlari va ularning qonuniyatlami anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shaklidir; inson ma’naviy dunyosining o‘ziga xos yashirin hislatlarini ochib beradigan o‘z-o‘zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir.³

Pedagogik refleksiya — bu o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatini anglash, baholash, tahlil qilish va uni takomillashtirishga yo‘naltirilgan ongli intellektual faoliyatidir. U shaxsiy tajriba asosida o‘z-o‘zini anglash, o‘zining kasbiy harakatlarini nazorat qilish va takroriy tahlil qilish orqali ta‘lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim vosita hisoblanadi. Refleksiya bo‘lajak o‘qituvchiga o‘z faoliyatini tanqidiy ko‘z bilan ko‘rishga, o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashishga, o‘zining bilim,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yildagi 8-oktabrdagi PF-5847 farmoni.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli farmoni.

³ Filosofskaya ensiklopediya. - M : Sovetskaya ensiklopediya 1967.

ko'nikma va munosabatlarini zamon talablari asosida yangilab borishga imkon yaratadi. Ayniqsa, zamonaviy pedagogik jarayonda refleksiya bo'lajak o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi ichki motivator sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayon nafaqat o'quvchilarning rivojlanishiga, balki o'qituvchining pedagogik pozitsiyasi, kasbiy madaniyati va metodik yondashuvlarining boyishiga ham xizmat qiladi. Refleksiv fikrlovchi pedagog har bir o'quv vaziyatini tahlil qilish, uni takomillashtirish va eng maqbul yechimlarni topish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli pedagogik refleksiya nafaqat kasbiy zarurat, balki o'qituvchining uzluksiz kasbiy o'sishining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Refleksiv salohiyatni rivojlantirishda samarali tashkiliy-pedagogik sharoitlar muhim rol o'ynaydi. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi: ta'lim jarayonining interaktiv usullar asosida tashkil etilishi, mustaqil tahliliy faoliyatga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimi, o'z-o'zini baholash va kuzatish mexanizmlarining joriy etilishi, mentorlik (murabbiylik) faoliyatining yo'lga qo'yilishi va o'zaro baholash usullarining muntazam qo'llanilishi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida kasbiy rivojlanish bo'yicha tashkil etilgan malaka oshirish kurslari, seminar-treninglar, ustoz-shogird an'analari, portfoliolar yuritish amaliyoti refleksiyani chuqurlashtirishda muhim tashkiliy omillar sanaladi. Refleksiv yondashuv samaradorligini ta'minlovchi omillardan yana biri — bu akademik erkinlikdir. Bularning barchasi refleksiv kompetensiyani shakllantirishda murakkab, lekin zaruriy tashkiliy-pedagogik asos bo'lib xizmat qiladi.

N.V.Kuzminaning fikricha, refleksiyaning “mazmuni, sherigining ichki dunyosini o'zaro hamkorlik asosida subyektiv qayta yaratishdan iborat bo'lgan individlar bir - birlarini ko'zgudagi kabi aks ettirishi, o'zaro aks ettirishning o'ziga xos ikki tomonlamalik jarayoni, qolaversa, bu ichki dunyoda, o'z navbatida, birinchi tadqiqotchining ichki dunyosi aks etishidir”.⁴

Refleksiv muloqot shundaki, u bir tomonlama axborot uzatish emas, balki fikr almashinuvi, tushunchalar to'qnashuvi va talqinlar uyg'unligidan iborat dinamik

⁴ A.Xoliqov. Pedagogik mahorat. – Toshkent.: 2011.

jarayondir. Bu jarayonda o'qituvchi o'z mavqeini "men bilaman – sen o'rganasan" nuqtai nazaridan emas, balki "keling, birgalikda anglaylik, baholaylik" yondashuvida tashkil etishi lozim.

Buyuk Britaniya va Kanada ta'lim tizimlarida ham refleksiv yondashuv ustuvor tamoyil sifatida qaraladi. Bu mamlakatlarda bo'lajak o'qituvchini tayyorlash dasturlarida talabalarning shaxsiy portfoliolari, amaliy tajriba kundaliklari, professional rivojlanish rejalari orqali refleksiya ko'nikmalari shakllantiriladi. Shu orqali pedagogik jarayon subyektlari o'z faoliyatini chuqur tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga o'rgatiladi. Ayni vaqtda G'arb ta'lim tizimlarida refleksiya o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Pedagogik jarayondagi refleksiv yondashuv nafaqat o'qituvchining shaxsiy o'sishini ta'minlaydi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va o'z-o'zini baholash kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Xorijiy davlatlar tajribasining o'zbek ta'lim tizimiga moslashtirilishi, avvalo, pedagogik tafakkurning milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Bu borada refleksiv kompetensiyani rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish, kasbiy refleksiya madaniyatini shakllantirish va mentorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishlar orqali bo'lajak o'qituvchilarda puxta, ijtimoiy mas'uliyatli va doimiy o'zgaruvchan muhitga moslasha oladigan refleksiv tafakkur shakllantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishda refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish — bu nafaqat kasbiy tayyorgarlikning ajralmas tarkibiy qismi, balki ular uchun hayot davomida o'qituvchilik san'atini mukammallashtirishga xizmat qiluvchi strategik kompetensiyadir. Shu bois, oliy pedagogik ta'lim muassasalari ushbu ko'nikmalarni tizimli, bosqichma-bosqich va metodik asoslangan holda rivojlantirishga e'tibor qaratmog'i zarur. Kelajakda ushbu yo'nalishdagi izlanishlar o'qituvchilik kasbining yanada innovatsion va refleksiv xususiyatga ega bo'lishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yildagi 8-oktabrdagi PF-5847 farmoni.
3. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: Sano-standart, 2017.
4. A.Xoliqov. Pedagogik mahorat. – Toshkent.: 2011.
5. Sovremennaya filosofiya. Slovar i xrestomatiya. - Rostov - don. Femks. 1996. - 67 b.
6. Селевко Г.К. Педагогические технологии авторских школ. - М.: НИИ школьных технологий, 2005. - 192 с.